

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**  
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023  
SJIF 2024 = 5.444**  
**Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль**

**LAVANDA XUSUSIYATLARI VA AMALIY AHAMIYATI**

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali

**Shoberdiyeva Sitora Shavkat qizi**

[sitorashoberdiyeva@gmail.com](mailto:sitorashoberdiyeva@gmail.com)

**Qo`shoqova Gulhayo Baxodir qizi**

[qo`shoqovagulhayo@gmail.com](mailto:qo`shoqovagulhayo@gmail.com)

**Ashurova Lobar Olimjonovna**

[ashurovalobar1@gmail.com](mailto:ashurovalobar1@gmail.com)

**Annotatsiya** lavandaning amaliy ahamiyati, kimyoviy tarkibi va foydali xususiyatlari haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Lavandula angustifolia, sineol, geraniol, borneol, kumarin.

**Kirish.** Hozirgi davrda o'simliklar introduksiyasining ahamiyati kamaymasdan, aksincha, ehtiyoj oshib bormoqda. Sayyoramiz o'simliklari resurslarini o'zlashtirishning yangi istiqbollarini ochib bermoqda. Ertapishar, serhosil, turli kasalliklarga chidamli, mahaliy tuproq-iqlim sharoitlariga moslashgan va boshqa foydali xo'jalik belgilarga ega o'simliklarni tanlash va sinash jarayonida ham o'simliklar introduksiyasini o'rni beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 20 maydagi PF-139-sonli dorivor o'simliklar xom ashyo bazasidan samarali foydalanish, kasalliklarning oldini olish va davolashda dorivor o'simliklarni keng qo'llash,dorivor o'simliklarning madaniy plantatsiyalarini barpo etayotgan tadbirkorlik subyektlarini qo'llab quvvatlash orqali chuqur qayta ishlashni tashkil etish va qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish maqsadida: lavanda va shu kabi dorivor o'simliklar yetishtirish bo'yicha hududlar kesimida plantatsiyalar tashkil etilishi,bu bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqishga katta e'tibor berib, soha mutaxassislari oldiga vazifa qilib qo'ydilar. 2022/11" 27 Asosiy qism: O'simlikning sistematikasi.Dorivor yoki haqiqiy lavanda (Lavandula angustifolia-officinalis L.),Lavanda (lavandula) turkumi,Yalpizdoshlar oilasiga mansub yarim buta o'simlik. Lavandaning vatani – O'rta yer dengizi. Lavandaning 25 dan ortiq turi uchraydi. Kimyoviy tarkibi: O'simlik bargi va gullarining kimyoviy tarkibi-sineol, geraniol, borneol, kumarin kabi foydali

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

**Researchbib Impact factor: 11.79/2023**

**SJIF 2024 = 5.444**

**Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль**

moddalarga boy. Tarkibida uchrovchi kumarin sodda organizmlar va hasharotlar rivojlanishiga yo‘l qo‘ymaydi, shu sababdan, lavanda pedikulez, parazitlarda, shuningdek, kuyaga qarshi kurashda tavsiya etiladi. Taninlar. Virus, bakteriyalarga halokatli ta’sir etadi. Yengil ich yumshatuvchi, siydiq haydovchi ta’siri bilan ajralib turadi, ichakdagи chirish jarayonlarining oldini oladi. Kislotalar- yurak faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi, organizmdagi yallig‘lanish jarayonlari bilan kurashadi. Amaliy ahamiyati: Farmatsevtikada antibakterial, og‘riq-qoldiruvchi, yallig‘lanishga qarshi, tinchlantiruvchi, sil, isitma, uyqusizlik. Qishloq xo’jaligida shifobaxsh xushbo‘y asal olinadi. Oziq – ovqat sohasida Lavanda choyi, ziravor, shirinliklar, salatlar, sirka, jele, aroq tayyorlashda, ajinga qarshi krem, soch tokilishiga, qazgoqga qarshi, dezodrant, antiseptik, kuygan teri-regeneratsiyasi, organizmni bakteriya va viruslardan tozalashda lavanda moylari keng qo‘llaniladi. Lavanda qimmatbaho asalshirali o‘simplikdir, chunki gullarining nektari shakarga boy (21-38%), va gullah davri 35-40 kun davom etadi. Bir gектар maydonдан lavanda shifobaxsh xususiyatlarga eга bo‘lgan 150-200 kg aromatik asal olinadi. Lavandaning o‘ziga xos bir qator xususiyatlari mavjud. Eng avvalo u suvsizlikka chidamli bo‘lib, yil davomida sug‘orish shart emas. Eng muhim esa 1 marta ekilgan ko‘chatlar 25-30 yil hosil beradi. Undan sintezlanadigan 1 litr moy dunyo bozorida 20-100 dollar miqdorida baholanishi esa foyda miqdorini oshishiga xizmat qiladi. Uning xushbo‘y hidi sizni tushkunlikdan holos etadi. Lavanda efir moyi ham huddi shunday shifobaxsh xususiyatga eга. Shuningdek guli va bargidan choy ham tayyorlash mumkinligi uning baxosini yanada oshiradi. Lavanda yorug‘sevar, qurg‘oqchilikka chidamli, issiqsevar o‘simplik va 30 daraja sovuqqa chidaydi. Uch yildan keyin ko‘chatlar orasiga boshqa ekinlar ekib hosil olish 2022/11” 28 mumkin. O‘zbekistonda ham lavanda plantatsiyalarini barpo etish ishlari olib borilmoqda. Surxondaryo sharoitida lavanda o‘simpligi ontogenet bosqichlarini to‘liq o‘tadi va gullab urug‘ berdi. Xulosa qiladigan bo‘lsak bu o‘simplikni Surxondaryo sharoitida keng maydonlarda yetishtirsak bo‘ladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. 26.11.2020 yildagi «Dorivor o‘simpliklarni yetishtirish va qayta ishslash, ularning urug‘chilagini yo‘lga qo‘yishni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi PQ-4901-son qaror.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

**Researchbib Impact factor: 11.79/2023**

**SJIF 2024 = 5.444**

**Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль**

2. Begmatov A.M G‘aniyeva G.Introduction,growth and development of lavandula angustifolia International Journal for Innovative Engineering and Management Research Volume 10,Issue 12,pages:55-58
3. Кустова О.К Сравнительно-морфологический анализ признаков генеративных органов видов рода lavandula 2010 С-144
4. To‘xtayev B.Yo., Xamidov J.J., Safarov I.B.To‘xtayev B.Yo. Farg‘ona vodiysi iqlim va tuproq sharoitida dorivor lavanda lavandula offisinalis.) ni ko‘paytirish usullari.2019
5. www.google.ru LAVANDA.